

BIR TALABAGA - BIR KO'CHAT

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETining Gidromelioratsiya fakulteti dekanati va fakultet Yoshlar ittifoqi, fakultet talaba yoshlarining ekologiyaga o‘z hissalarini qo‘shish hamda har bir insonning bajarish kerak bo‘lgan burchlaridan biri hisoblangan daraxt ekish burchini amalga oshirish maqsadidagi tashabbusini qo‘llab quvvatlash maqsadida talabalar bilan birgalikda 2022 yil 3 aprel kunida fakultet talabalari o‘rtasida “Bir talabaga-Bir ko‘chat” aksiyasi o‘tkazdi.



Fakultet talabalari universitetimiz avtobusida va qo‘shimcha mashinalarda erta tongda Universitetning Toshkent viloyati O‘rta chirchiq tumanida joylashgan amaliyot o‘quv markaziga yetib borishdi. Talaba yoshlar musaffo osmon ostida 400 tub terak ko‘chatini charchoq bilmay yerga o‘tqazdilar. 50 tub oq tut va 50 tub qoratut ko‘chatlarini kun issiq bo‘lishiga qaramasdan savobli ishni kechiktirmaslik maqsadida ishni yana ham jadallik bilan davom ettirib so‘ngra yakunlashdi.



Shuningdek talabalar yomg‘irlatib, tomchilatib sug‘orish texnologiyalarining qanday ishlashi bilan yaqindan amaliy tanishdilar.



Aksiya yakunlangach talabalar turar joyiga ko‘tarinki kayfiyat bilan qaytib kelishdi. 4-Talabalar turar joyida istiqomat qiluvchi talaba qizlar turli xil shirinliklar, mevalar, salatlar, hamda bahoriy taomlar tayyorlashdi. Aksiyada ishtirok etgan talabalarni ko‘tarinki ruhda kutib olishdi shu bilan kechga iftorlik dasturxonini yozildi.



TTJda barcha talaba yoshlar ustozlari bilan birgalikda iftorlik qilishdi.



TALABALIK OLTIN DAVR ekanligini talabalar yana bir bor his qilishdi.

Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini

A.A.Karimov